

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
AL - XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ATABAY JUMANIYAZOV  
QIZILGUL XALLIYEVA

# DEUTSCH

(Nolisoniy fakultetlarning 1 – kurs talabalari uchun)

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL - XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**ATABAY JUMANIYAZOV  
QIZILGUL XALLIYEVA**

**DEUTSCH**

**(Nolisoniy fakultetlarning 1 –kurs talabalari uchun)**

**Ma'sul muharrir: Z.Jumaniyazov**

**Taqrizchilar:**                   **R.Allayarova**  
   **D.Ro`zmetova**

**O`quv qo`llanmani Urganch Davlat Universiteti ilmiy kengashi nashrga tavsiya qilgan.**

**URGANCH - 2013**

## **Annotatsiya**

Ushbu o'quv qo'llanma nolisoniy fakultetlar 1-kurs talabalari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanma umumiyligi tahsilning birinchi qismi bo'lib, oliv o'quv yurtlarining chet tillari o'qitish dasturida tavsiya qilinayotgan 114 o'quv soatlaridan kelib chiqib, unga barcha mutaxassislik egalarining kundalik hayotini aks ettiruvchi oltita mavzu tanlab olindi. Bu mavzularda berilgan so'z va iboralar, mashq va matnlar, hamda illyustrativ material talabalarning tanlangan mavzular bo'yicha erkin muloqotiga poydevor bo'ladi.

### **Аннотация**

Данное учебное пособие предназначено для студентов 1-ых курсов неязыковых факультетов вузов. Учебное пособие охватывает первую часть общего обучения иностранным языкам, исходящих из 114 учебных часов. В учебное пособие включено 6 основных тем из повседневной жизни специалистов всех направлений. Приведённые в них слова и выражения, упражнения и тексты, наглядность и иллюстративный материал способствуют свободному общению студентов на изучаемом языке.

### **Annotation**

This manual is aimed for first year students of non-philological faculties. The manual is the first part of general study, it is based on 114 hour lessons which is suggested in the program of teaching foreign languages in Higher Educations. Six themes were chosen for the manual which can express everyday life of all specialists. The words and phrases, exercises and texts, illustrative materials which were given on those themes can be the basis of free communication of students according to chosen themes.

## **So'z boshi**

Ma'lumingizkim, mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan to'g'ri siyosat, yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasiga berilayotgan alohida e'tibor, professor o'qituvchilarimizning katta sa'y-harakatlari, qolaversa maktab va oliv o'quv yurtlarimizda o'qitilayotgan chet tillariga dahldor xorij elchixonalari va ularning insonparvar tashkilotlarini samimiy ko'maklari samarasi natijasida respublikamiz maorif tizimi eng zaruriy chet tili darslik va o'quv qo'llanmalari bilan to'la ta'minlanildi. Endi ilmiy-ma'rifiy jamoatchiligidan oldida hozirgi kunda foydalanib turilgan mavjud chet tillari bo'yicha darslik va qo'llanmalarga yanada sayqal berish, ularni ixtisoslashtirish, yetishib kelayotgan mutaxassislar kasblariga moslab muayyan o'zgartirishlar kiritish masalasi ko'ndalang turibdi. Shu ma'noda biz tavsiya qilayotgan o'quv-qo'llanma oliy-o'quv yurtlarimizning fakultetlararo nemis tili tahsili bo'yicha birinchi kurslar uchun mo'ljallanib tuzildi va ixtisoslik asosida nemis tilining o'rganilishi debochasi desa bo'ladi. Ta'kidlamoqchimizki, mazkur o'quv qo'llanma umumiyligi ishning birinchi qismi bo'lib, oliy o'quv yurtlarining chet tillari o'qitish dasturida tavsiya qilinayotgan 114 o'quv va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqadi. Unga barcha mutaxassislik egalarining kundalik hayotlari uchun asos bo'luvchi oltita mavzu tanlab olindi. Yoxud bu mavzular barcha uchun umumiyligi manba va hayotiy zarur bo'lib, ixtisosliklar bo'yicha muloqot uchun ham poydevor hisoblanadi. Aynan ixtisoslikka oid (autentik) matnlar va amaliy mashqlar, mutaxassislik atamalarini jiddiy va astoydil o'rganish bo'yicha asosiy material, ikkinchi kurslarga 76 soat va uchinchi kurslarga 76 soatlik o'quv mashg'ulotlarida beriladi va ular har bir mutaxassisning o'z ixtisosligi bo'yicha erkin muloqot qilishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda kafedramiz a'zolari o'quv qo'llanmaning ikkinchi va uchinchi qismlari ustida ishlayapti va tez orada ularni ham keng jamoatchilikka tavsiya qilish umidlari bor. Mualliflar o'quv qo'llanma haqidagi har bir fikr mulohazaga mushtoq va hamkasblardan bu borada hamkorlik kutib qolishadi.

## 1.Lektion

**Fonetika:** Alfavit. Unli va undosh tovushlar. Harf birikmalari.

Diftong va affrikatlar.

**Leksika:** Erste Kontakte

**Grammatika:** Ot, otlarda rod kategoriyasi. Artikl va ularning turlanishi

## ALFAVIT

Bosma harflar	Harflarning nomi	Bosma harflar	Harflar- ning nomi
Aa	[a:]	Nn	[en]
Bb	[be:]	Oo	[o:]
Cc	[tse:]	Pp	[pe:]
Dd	[de:]	Qq	[ku:]
Ee	[e:]	R r	[er:]
Ff	[ef]	S,s, ß	[es:]
Gg	[ge:]	T t	[te:]
Hh	[ha:]	Uu	[u:]
I i	[i:]	Vv	[fau]
J j	[jot]	Ww	[ve:]
Kk	[ka:]	Xx	[iks]
L l	[el:]	Yy	[epsilon]
Mm	[em:]	Zz	[tset]
Ä ä	a—Umlaut		
Ö ö	o—Umlaut		
Ü ü	u—Umlaut		

## FONETIKA

### Nemis tili alfavitü harflari va ularning talaffuz qilish qoidalari.

Tilda harflarning muayyan tartibda joylashtirilishiga alfavit deyiladi.

Nemis tili alfavitida 26 ta harf bor bo`lib, ulardan 6 tasi unli (a, e, i, o, u, y), qolgan 20 tasi undoshlardir. Har bir tilda bo`lganidek, nemis tili harflari ham bosma va yozma, katta va kichik yozilish shakllariga egadir.

Nemis tilidagi 26 ta harf 45 ta tovushni ifodalaydi. Har bir harfning qanday tovushni ifodalashi uning so`zdagi o`rni, usuli va boshqa harflar bilan birikib kelishiga bog`liq bo`ladi.

Quyida mazkur harflarning talaffuz jihatlarini ko`rib chiqamiz:

1. Nemis tilidagi «a» harfi so`zdagi o`rnidan qat'iy nazar bitta tovushni ifodalaydi. Nemis [a] tovushi o`zbek [o] tovushiga o`xshab o`qiladi: *Ada, Adler, Anna*.

2. Nemis tilidagi «b» harfi so`zdagi o`rniga ko`ra ikki tovushni anglatadi, yoxud ikki xil talaffuz qilinadi:

a) unlilardan oldin va ikki unli o`rtasida kelsa, o`zbekchadagi jarangli portlovchi [b] tovushi singari o`qiladi: *baden, abends, aber, eben*.

b) Bo`g`in va so`z oxirida hamda jarangsiz undoshlardan oldin kelsa «b» tovushi jarangsizlanadi va o`zbekchadagi jarangsiz [p] tovushidek o`qiladi: *ab, ob, lebt, Herbst*.

3) Nemischa «c» harfi ikki tovushni anglatadi. Bu harf a, o, u unlilaridan oldin kelsa, o`zbekchadagi [k] (*Cafe, Conto*) kabi i, e, ie, ä, ü, ö unlilaridan oldin esa o`zbekchadagi [ts] tovushiga o`xshab o`qiladi: *Cäsar, Cent*.

Bu harf nemis tiliga xos emas, ya`ni u asli nemischa bo`lgan so`zlarda uchramaydi. Uni faqat nemis tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so`zlardagina uchratish mumkin. Shu sababli bu harf so`zning qaysi tildan qabul qilinganligiga ko`ra farqlanib talaffuz qiliniladi va o`zbekchadagi "ch", "ts" "s" tovushlariga o`xshab aytiladi. Masalan: italyancha *Cello* — *chello*, lotincha *Centner-sentner*, fransuzcha *Centime* — *satim o`qiladi*.

4. Nemischa «d» harfi ikki xil o`qiladi. Unlilardan oldin va ikki unli o`rtasida kelsa, o`zbekchadagi jarangli [d] tovushidek: *der, das, baden, Leder*; so`z va bo`g`in oxirida kelsa, bu holat ham xuddi o`zbek tilidagi kabi [t] aytilish xususiyatiga ega: *Land, Band, Herdmeister, Mädchen*

5. Nemischa «e» harfining o`qilish xususiyati to`rt xil:

a) ochiq bo`g`in, shartli yopiq bo`g`in, urg`uli bo`g`in oxirida o`zbek tilidagi "yemoq", "yetilish" so`zlaridagi [ye] kabi o`qiladi. *Leda, Weg, Helene*.

b) yopiq bo`g`in, qo`s sh undosh, ikki yoki undan ortiq tovushlardan oldin kelsa, o`zbekchadagi "etik", "eshik", "lekin" so`zlaridagi [e] tovushidek o`qiladi: *Sendung, Bett, Werk, Mensch*.

v) urg`usiz bo`g`inda kelgan «e» harfi reduktsiyaga uchraydi, deyarli o`qilmaydi, aytilishi juda zaif chiqadi. Bu holat nemischada «Murmellaut» deyiladi. Bu tovushning talaffuzi o`zbek tilidagi bir bo`g`inli so`zlarning va ko`p bo`g`inli so`zlarning oxirgi bo`g`inlarida keladigan [i] tovushining (biz, bir, kirish, kirdi, shipshidi,) o`qilishiga o`xshab ketadi: *sagen, fragen, kommen, andere*.

g) «i» unlisidan keyin kelgan «e» harfi o`qilmaydi, u [i] tovushining cho`zib o`qilishi zarurligini bildiradi, yoxud cho`ziqlik belgisi xizmatini o`taydi: *sie, liegen, Tier*.

6. Nemischa «f» harfi o`zbekchadagi [f] tovushi kabi o`qiladi: *Fabrik, Fenster, fett*.

7. Nemischa «g» harfi ikki xil talaffuz qilinib, unlilardan oldin yoki ikki unli o`rtasida kelsa, o`zbekchadagi jarangli [g] tovushiga o`xshab o`qiladi; *gehen, Gans, gut, legen*.

Bo`g`in, so`z oxiri va jarangsiz tovushlardan oldin kelsa, o`zbekchadagi [K] tovushiga yaqin (nemischasi zarbliroq) o`qiladi: *Weg, liegt, tagt*.

Bu harf fransuz va ingliz tilidan kirib kelgan ayrim so`zlarda «jurnal» so`zidagi [j] tovushiga o`xshab o`qilishi ham mumkin: *Genie, generieren, Regisseur*.

8. Nemischa «h» harfini o`qishda ikki narsaga e'tibor berish lozim:

a) so`z va bo`g inning boshida kelgan «h» harfi o`zbek tilidagi jarangsiz, bo`g'iz (h) tovushiga o`xshab o`qiladi: *haben, dahin, Hase*.

b) unlidan keyin, ikki unli o`rtasida kelgan «h» harfi o`qilmaydi, u faqat oldida kelayotgan unlining cho`zib o`qilishi zarurligini bildiradi. *Bahn, Lohn, Uhu, sehen, gehen*.

9. Nemischa «i» harfi o`zbek tilidagi [i] tovushiga o`xshab o`qiladi. Faqat «i» harfining nemischada cho`ziq, (*liegen, tief*) va qisqa (*Kind, Wind, lustig*) talaffuz qilinish holatlariga e'tibor berish lozim, chunki unlilarning qisqa va cho`ziq o`qilishi nemis tilida so`z ma'nosini o'zgartiradi: *Lied-qo'shiq, Lid- kiprik*

10. Nemischa «j» harfi o`zbek tilidagi [y] tovushiga o`xshab nutqda ifodalanadi: *Junge, jubeln, Jurte*.

Bu harf ayrim chet tillardan kirgan so`zlarda [j] yoki [x] tovushi kabi o`qiladi: *Juri — jyuri, Journal — jurnal, Jose — Xose*.

11. Nemischa «k» harfi o`zbek tilidagi qattiq [q] tovushidek o`qiladi: *Karte, kommen, Kur*.

12. Nemischa «l» harfi o`zbek tilidagi [l] tovushiga nisbatan biroz yumshoq talaffuz qilinadi: *Liebe, Land, leben*.

13. Nemischa «m» harfining talaffuzi o`zbekchadagi lab-burun [m] tovushiga juda yaqin turadi: *Mann, Mutter, kommen, Lamm*.

14. Nemischa «n» harfi o`zbekcha burun [n] tovushi kabi o`qiladi: *Name, kennen, Fenster*.

15. Nemischa «o» harfi so`zdagi o`rnidan qat'iy nazar, o`zbekcha «o`tin, o`tov» so`zlaridagi [o`] tovushiga o`xshab talaffuz qilinadi: *Lohn, Mond, Politik*.

16. Nemischa «p» harfi o`zbek tilidagi jarangsiz [p] tovushidek o`qiladi, faqat nemis tilida u biroz zarbliroq va nafasliroq o`qilishi lozim: *Pappel, Mappe, pendeln*.

17. Nemischa «q» harfining talaffuzi o`zbekchadagi [q] tovushiga o`xshab ketadi. U asosan nemis tiliga boshqa chet tillardan kirgan so`zlarda uchraydi. «Q» harfi asosan «u» harfi bilan birga keladi va [kv] deb o`qiladi: *bequem, Quadrat, quaken, Quarz, Quantum.*

18. Nemischa «r» harfining o`qilishi uni o`rganayotgan o`zbeklar uchun muayyan qiyinchiliklar tug`diradi. Chunki bu tovushni nemislarning o`zлari turli talaffuz qiladilar. Bu hodisa asosan nemis tilida shevalarning ko`pligi, nemis so`zlashuv tilida sheva bilan adabiy tilning aralashib qo`llanilish holatlari va ”r” harfning so`zlarda kelish o`rniga bog`liq bo`ladi:

a) so`z va bo`g`in boshida, unlilardan oldin, ikki unli o`rtasida undoshlar bilan birga kelganda, o`zbek tilidagi [G`] ga o`xshab o`qiladi: *Rabe, Regen, aroma, Braten.*

b) urg`usiz bo`g`inlarda yarim unli, yarim undoshlik xususiyatini kasb etadi va ”g” ”r” undosh tovushlari va ”o” unli tovushini aralashtirilib talaffuz qilish natijasida hosil bo`ladi.

Shu sabab bu tovush talaffuzini mukammalroq egallash uchun nemis adabiy tilida jaranglayotgan sof nemischa nutqni eshitish va unga taqlid qilib mashq qilish tavsiya qilinadi. *Mutter, Bücher, Verhör.*

19. Nemischa «s» harfi uch xil o`qilish shakliga ega:

a) unlilardan oldin va ikki unli o`rtasida o`zbekcha [z] tovushiga yaqin o`qiladi: *Sand, lesen, sie, sehen.*

b) bo`g`in va so`z oxirida o`zbekcha [s] tovushidek talaffuz qilinadi: *Maske, Haus, lassen*

v) «s» harfi so`z (o`zak) boshida r, t undoshlaridan oldin kelsa, o`zbekchadagi [sh] tovushi kabi o`qiladi, faqat u sal shovqinliroq, talaffuz etiladi: *Sport, Student, bestehen.*

20. Nemischa «t» harfi o`zbekcha jarangsiz portlovchi- [t] tovushiga ancha yaqin bo`lib, faqat bunda nafas sal zarbliroq o`qilishi kerak: *Tante, Tisch, Bett.*

Chet tillardan kirib kelgan ayrim so`zlarda tion, tie suffikslarida “ts” bo`lib ham o`qiladi: *Aktion, Diktion*

21. Nemischa «u» harfi o`zbekcha [u] tovushiga o`xshaydi: *Uta, Hut, unten, Ruhe.*

22. Nemischa «v» harfi ikki xil o`qiladi.

Uning to'g'ri talaffuzi uchun o'quvchi nemis tilining lug'at sostavidagi aslan nemis tiliga xos va unga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni farqlay olishi kerak. Zero bu harf

a) aslan nemischa so`zlarda o`zbekchadagi [f] tovushi kabi o`qiladi. *Vater, viel, von, vier.*

b) nemis tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so`zlarda o`zbek tilidagi [v] tovushi kabi o`qiladi: *November, Nerven, Verb, Viktor.*

23. Nemischa «w» harfi o`zbekcha [v] tovushiga juda yaqin: *Wand, Weber, Löwe.*

24. Nemischa «x» harfi o`zbekchadagi [ks] tovush birikmasi kabi o`qiladi: *Marx, Text, Alexander.*

25. Nemischa «y» harfining ikki xil nomlanishi uchraydi: epsilon va ypsilon. Bu nomlar uning o'zi uchraydigan so'zlariga qarab talaffuz qilinishiga bog'liq. Zero u ayrim holatlarda o`zbek tilidagi kun, tun, un (*ovoz*) so`zlaridagi [u] tovushi kabi o`qiladi: *Analyse, System, synchron.*

Ikkinci shakli o`zbekcha [i] ga o`xshab ketadi. U asosan chet tillardan kirgan so`zlarda uchraydi: *Juri, Yperit, Ysop.*

Ayrim holatlarda esa o'zi qaysi tildan nemis tiliga kirib kelgan bo'lsa shu til imlo talaffusi asosida o`qiladi. *Yard, Byt.*

26. Nemischa «z» harfi o`zbekcha [ts] tovushi birikmasi kabi o`qiladi: *Zone, Zimmer, Arzt.*

### **Harf birikmalari**

Yuqorida aytib o`tilgan tovushlardan tashqari nemis tilida yana ayrim tovushlar borki, ular muayyan harflarning birikuvidan tashkil topadi, va o'zlariga xos o`qilish xususiyatlariga ega:

1. «s» va «h» harflari «ch» (tse—xa) birikmasini tashkil qiladi va bu birikma uch xil o`qiladi.

a) «ch» harflar birikmasi a, o, u unlilari, au diftongidan keyin kelsa, o`zbekchadagi «taxta, paxta» so`zlaridagi [x] tovushiga o`xshab o`qiladi va u tilshunoslikda [x] axlaut nomi bilan yuritiladi: *Bach, doch, Buch*.

b) «ch» harflar birikmasi i, e, ä, ö, m, n, l, r, ei, eu, äu tovushlaridan keyin kelsa, [ç] kabi o`qiladi. Bu tovush Ixlaut deb nomlanadi. Bu undosh tovush jarangsiz, sirg`aluvchi, til o`rta undosh tovushdir. Uni talaffuz qilish uchun til o`rtasi tekis ko`tarilib, orqa qismi tanglayning orqaroq qismiga yaqinlashtiriladi, tilning uchi esa pastki tishlar milkiga tekkizilib, o`pkadan kelayotgan havo oqimi til va tanglay oralig`ida hosil bo`lgan tor bo`shliqdan chiqaziladi: *ich, recht, Bäche, Löcher, Bücher*. Bu tovushning muqobili o`zbek tilida yo`q. Shuning uchun ham uning sof talaffuzini nemis tili suhandonlari nutqidan eshitib ko`rish va ularga taqlid qilish lozim.

v) «ch» harflar birikmasi “s” harfidan oldin kelsa [q] tovushini beradi: *wachsen, sechs, Luchs*. “Ch” harf birikmasi dunyoning turfa tillarida turli xil (inglizcha ch, fransuzcha sh, nemischa x yoki [ç] o`qilishi sababli uning talaffuzi o`quvchidan doimo jiddiy etiborlilik talab qiladi. Ixlaut tovushi talaffuzi bobida yana shuni ta`kidlash lozimki nemis tilida ko`p uchraydigan “ig” harflar birikmasi (qo`shimchasi) ham asosan so`z oxirida ixlaut bo`lib o`qiladi: *richtig, selig, wenig, wichtig*.

2. «sch» (es-tse-ha) harflar birikmasi o`zbek tilidagi [sh] tovushini beradi. Nemischa [sh] o`zbekchaga qaraganda sal shovqinliroq o`qiladi: *Schule, waschen, Maschine*.

3. «tsch» (te-es-tse-ha) harflar birikmasi [ch] tovushni bildirib, o`zbekchadagi [ch] ga qaraganda sal shovqinliroq o`qiladi: *Kutscher, Tschirtschik, Borschtsch*.

4. «Sh» (es-ha) harflar birikmasi [j] tovushiga o`xshab o`qiladi va u nemis tiliga boshqa tillardan kirgan so`zlarda uchraydi: *Shukow, Shenja, Tschijikov*

5. «ng» (en-ge) harflar birikmasi tilshunoslikda a n g l a u t deyiladi va u o`zbekchadagi [ng] tovushiga o`xshab talaffuz etiladi: *lang, Menge, singen*.

Etiborlisi shundaki «н» harfi so'z o'zagi tarkibida «к» harfidan oldin kelsa ham, [ng] kabi o'qiladi: *danken, senken, trinken*.

6. «ck» (tse-ka) harflar birikmasi o'zbekchadagi [k] kabi o'qiladi, kuchliroq talaffuz qilinadi: *Ecke, Decke, Sack*.

## AFFRIKATLAR

Ayrim ikki yoki undan ortiq undoshlarning birikib kelib, qo'shib talaffuz qilinishi asosida yuzaga keladigan tovushlarga affrikatlar deyiladi.

O'zbek tilida ikki va undan ortiq undoshning qo'shib aytish holatlari deyarli yo'q, shu sababli mazkur affrikatlarning to'g'ri talaffuzi o'zbek o'quvchilarida biroz qiyinchilik tug`diradi. Chunki, ularning artikulatsiyasi bir undosh tovush bilan boshlanib, ikkinchi bir undosh tovush bilan tugallanadi. Masalan, **[pf]** affrikatini hosil qilish uchun nutq organlarimiz avvalo «p» tovushini hosil qilib, keyin esa «f» tovushiga o'tadi. To`g`ri talaffuzning mohiyati shundan iboratki, ikki undosh juda jipslashtirilgan va mushtaraklashtirilgan bo'lishi lozim. Quyida har bir affrikatga alohida to`xtalamiz.

### **[pf] — affrikati**

Bu affrikatni hosil qilishda oldin «p» tovushidagi singari lablar bir-biriga birlashtiriladi, keyin f tovushidagi kabi pastki lab old tishlar uchiga tegiziladi. Bu affrikat yozuvda «pf» harflar birikmasi bilan ifodalanadi: *das Pferd, die Pfeife, die Pflaume, die Pflege*.

### **[ts] — affrikati**

[ts] — affrikatini talaffuz qilganda avvalo til uchi «t» tovushidagi kabi ko'tarilib, yuqori milkka tekkiziladi, keyin sirg`alib «s» tovushi talaffuziga o'tadi. Bu tovush o'zbek tiliga rus tilidan kirib kelgan *документ, цемент, щек* kabi so`zlarda uchraydi. *der Platz, der Satz, der Schatz, sitzen, schützen, das Rätsel*.

### **[tʃ] — affrikati**

**[tʃ]** affrikati ifodasi yuqoridagi pf va ts affrikatlaridan farq qiladi. Bu affrikat to`rt harf (tsch) yordamida yuzaga kelsada, bir tovush kabi aytildi. Nemischa **[tʃ]** undoshi o'zbekcha «ch» undosh tovushidan o'zining artikulatsiyasi bilan farqlanadi. o'zbekcha «ch» tovushini talaffuz qilganda, tilning yuqori qismi ustki

tishlarga yaqinlashadi. Nemischa [tʃ] tovushini talaffuz qilganda esa til o`rtasi tanglay tomon ko`tariladi. Bu affrikat yozuvda «tsch» harflar birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: deutsch, Kutscher, Kautschuk, Urgentsch, Tschuktsche.

## LEKSIKA

### Erste Kontakte

#### Vokabeln:

#### Verben:

heißen (hieß, geheißen) - <i>atamoq;</i>	leben (lebte, gelebt) - <i>yashamoq</i>
<i>atalmoq</i>	lernen (lernte, gelernt) - <i>o`rganmoq,</i>
sein(war, gewesen)- <i>bo`lmoq,</i> <i>joylashmoq</i>	<i>o`qimoq (tahsil olmoq)</i>
<i>bor,mavjud bo`lmoq , joylashmoq</i>	lesen (las, gelesen) - <i>o`qimoq</i>
studieren (studierte, studiert) -	machen (machte, gemacht) - <i>qilmoq</i>
<i>o`rganmoq , tahsil olmoq</i>	werden (wurde, geworden) -
stehen(stand, gestanden) - <i>turmoq</i>	<i>bo`lmoq (kelasi zamon ma'nosida)</i>
fragen (fragte, gefragt) - <i>so`ramoq</i>	kommen (kam, gekommen)-
haben (hatte, gehabt) - <i>bor (ega)</i>	<i>kelmoq</i>
<i>bo`lmoq</i>	wohnen (wohnte, gewohnt) -
hören (hörte, gehört) - <i>eshitmoq</i>	<i>yashamoq,yashab turmoq</i>

#### Nomen

der Student (-en, -en)-	<i>tolib</i>
die Studentin(-,-nen)-	<i>toliba</i>
das Studienjahr(-es, -e) -	<i>o`quv yili</i>
das Land (-es, Länder) -	<i>qishloq, o`lka, mamlakat, quruqliz</i>
der Bruder(-s, Brüder)-	<i>aka-uka</i>
die Schwester(-, -n) -	<i>opa-singil</i>
der Mann (es, Männer) -	<i>kishi, odam, er</i>
die Frau (-,-en) -	<i>ayol, xotin, rafiq</i>
das Kind (-es, -er) -	<i>bola</i>
das Alter- (-s,-) - ( umr)	<i>yoshi</i>

die Ausländerin(-, -nen) - *chet ellik ayol*  
der Ausländer(-s,-) - *chet ellik*  
der Beruf (-s, -e) - *kasb*  
Deutschland - *Germaniya (ning nemischa aytlishi)*  
die Eltern (-, -,) - *ota-ona*  
der Familienname (-ns,-n) – *nasab, oila nomi, familiya*  
der Familienstand(-es,-) - *ijtimoiy ahvol*  
das Hobby(-s, -s) - *suyukli mashg`ulot, xobbi*  
der Tag (-es,-e) - *kun*  
das Telefon (-s, -e) - *telefon*  
die Leute (faqat ko`plikda)- *odamlar*  
der Monat(-s, -e) - *oy (vaqt birligi)*  
der Name (-ns, -n) - *nom, ism, ot*  
der Ort (-es,-e) - *joy, o`rin*  
der Vorname (-ns,-n) - *nom, shaxs ismi*  
der Wohnort (-s,-e) - *turar joy, maskan*  
alt- *qari, eski*  
berufstätig- *ishli, kasb bilan mashg`ul*  
frei - *bo`sh, ozod, erkin*  
geschieden - *ajralgan (turmushdan)*  
gut - *yaxshi, ma'qul*  
klein - *kichik, yosh*  
ledig - *bo`ydoq, turmushga chiqmagan*  
neu - *yangi*  
verheiratet - *uylangan, turmushga chiqqan*  
bitte- *marhamat*  
da- *shu yerda, u yerda*  
erst- *birinchi, boshida, endi*  
etwa- *qariyb, taxminan, -ga yaqin*  
hier- *shu yerda*

jetzt- *hozir, endi*  
leider- *afsus*  
nicht- *yo`q, emas, -ma-*  
noch - *yana*  
noch einmal - *yana bir marta*  
schon- *allaqachon*  
aber- *ammo, lekin*  
aus- - *dan, ichidan*  
bei - - *nikida, huzurida, qoshida*  
dein - *sening*  
in - *-ga, da*  
ja- *ha*

mein- *mening*  
mit- *bilan*  
nein- *yo`q, emas*  
und- *va*  
von- - *dan, xaqida, -ning*  
was? - *nima?*  
wer? - *kim?*  
wie? - *qanday?*  
wieviel? - *qancha?*  
wo? - *qayerda?*  
woher? - *qayerdan?*  
wohin? - *qayerga?*

## Synonyme

*leben –wohnen*

*da – hier*

*lernen - studieren*

## Antonyme

*kommen –gehen*

*alt - neu*


*alt –jung*

*hier - dort*



→ Ich bin Dilmisa Jusupova. Ich komme aus Choresm. Zur Zeit lebe ich in Urgentsch. Ich bin Studentin. Ich bin 17 (siebzehn) Jahre alt. Ich studiere Musik. Ich habe zwei Hobbys: Lesen und Singen.

Das ist Herr Umar Jusupov. Er kommt aus Yangiarik, Gebiet Choresm. Er ist 50 (fünfzig) Jahre alt. Herr Jusupov ist Buchhalter von Beruf. Jetzt wohnt er in Urgentsch, Pahlawan Mahmud Straße 13. Sein Hobby ist Zeichnen und Basteln.



→ Das sind Herr Lothar Stein und Frau Heidi Stein. Sie kommen aus Leipzig, aus der Bundesrepublik Deutschland. Herr Lothar Stein ist Ethnologe und Museumsdirektor. Frau Heidi Stein ist Türkologin und Professorin an der Leipziger Universität. Ihre Hobbys sind Sport und Reisen. Sie haben zwei Söhne. Erik studiert an der Technischen Universität in Dresden. Martin studiert Germanistik.

Auf diesem Foto ist Frau Doktor Manja Hussner. Sie ist Juristin und kommt aus Thüringen. Sie hat eine Tochter. Sie heißt Julanda. Julanda ist anderthalb Jahre alt.



Das ist eine junge Familie. Die Familie hat ein Kind. Es ist zwei Monate alt.

### **1-mashq. Guruh bo`lib ishlang. Birlik va ko`plikka e'tibor bering. Bir – birlaringizdan so`rang va javob bering.**

Sie		du	
Frage	Antwort	Frage	Antwort
<i>Wie heißen Sie bitte?</i>	<i>Ich heiße ...</i>	<i>Wie heißt du?</i>	<i>Ich heiße ...</i>
<i>Sind Sie Herr/ Frau ...?</i>	<i>Ja. Nein, mein Name ist ...</i>	<i>Bist du Maria?</i>	<i>Ja. Nein, ich heiße ...</i>
<i>Woher kommen Sie?</i>	<i>Ich komme aus ...</i>	<i>Woher kommst du?</i>	<i>Aus ....</i>
<i>Wo wohnen Sie?</i>	<i>Ich wohne in ....</i>	<i>Wo wohnst du?</i>	<i>In ...</i>

## **2 –mashq. Gaplarni to`ldiring.**

<i>bin/ heiße</i>	<i>heißen</i>	<i>Sind</i>	<i>bin</i>	<i>heißt</i>	<i>sind</i>	<i>ist</i>	<i>bin</i>	<i>bist</i>	<i>heißt</i>	<i>ist</i>
-------------------	---------------	-------------	------------	--------------	-------------	------------	------------	-------------	--------------	------------

- |                           |                          |
|---------------------------|--------------------------|
| a) Wie heißen Sie?        | D) ----- Sie Frau Sauer? |
| Ich heiße Paul Röder.     | Ja, das ----- ich.       |
| b) Wie ----- du?          | E) Wer -----du?          |
| Mein Name ----- Sabine.   | Ich ----- Christoph.     |
| c) Wer ----- Herr Lüders? | F) Wie ----- Sie?        |
| Das ----- ich.            | Ich heiße Paul Lüders.   |

## **3- mashq. Nemis tiliga tarjima qiling.**

1. Mening ismim Anvar.
2. Men xorazmlikman.
3. Men Xivada yashayman.
4. Otam buxgalter.
5. Onam o`qituvchi.

## **4-mashq. Ma’nosi mos fe’llarni qo`ying.**

<i>wohne</i>	<i>komme</i>	<i>heiße</i>	<i>ist</i>	<i>spreche</i>
--------------	--------------	--------------	------------	----------------

**Guten Tag!** Ich ----- (1)Andrea. Ich ----- (2) aus Deutschland. Ich ---- (3) in Hamburg. Ich ---- (4) Deutsch und Englisch.

**Salam alaykum!** Mein Name ----- (5) Nigora. Ich ----- (6) aus Usbekistan. Ich ----- (7) in Chiwa. Ich ----- (8) Deutsch und Italienisch.

**Namaste!** Ich ----- (9) Nargis. Ich ---- (10) aus Indien.

Ich ----- (11) in Urgentsch. Ich ---- (12) Deutsch, Französisch und Spanisch.

**Dobriy den!** Ich ..... Iwan. Ich ..... aus Russland. Ich ..... in Petersburg. Ich ... Russisch und Polnisch.

**Hi!** Ich .... Susan. Ich ... aus Großbritanien. Ich ... in London. Ich .... Englisch und Japanisch.

## **5-mashq. Savollarga mos javobni tanlang.**

- |                                 |  |
|---------------------------------|--|
| 1. Woher kommst du?             | A. in Tunis, in Tunesien                 |
| 2. Wo wohnst du?                | B. Ich spreche Spanisch und Italienisch. |
| 3. Welche Sprachen sprichst du? | C. Aus Asien, aus Vietnam.               |
| 4. Wie heißtt du?               | D. Deutsch, Russisch und Arabisch.       |
|                                 | E. Ich heiße Pedro, Pedro Delgado.       |
|                                 | F. Ich wohne jetzt in Dresden.           |

## **6 –mashq. To`ldiring.**

*Namuna:* a) Name: *heißen* / Wohnort: *wohnen*

b) Sie: Ihr Name/ du: \_\_\_\_\_

c) du: Wie geht es dir? /Sie: \_\_\_\_\_

d) Heißen: wie?/ wohnen: \_\_\_\_\_

e) Dilfusa Jusupowa: Fräulein Jusupowa /Abdollah Farahani \_\_\_\_\_

f) Abdollah: Vorname/ Farahani: \_\_\_\_\_

g) du: deine Telefonnummer /Sie: \_\_\_\_\_

h) bitte: Bitte schön! / danke: \_\_\_\_\_

## **7–mashq. Bitta javob to`g`ri. Qaysisi?**

### **1. Wie heißtt du?**

A *Maria.*

B *Nein, ich heiße Maria.*

C *Ich heiße Maria Schmidt.*

### **3. Wo wohnen Sie?**

A *in Frankfurt.*

B *Ich wohne in Frankfurt.*

C *Ja, in Frankfurt.*

### **2. Kommst du aus Deutschland?**

A *Ja, aus Berlin.*

B *Aus Deutschland.*

C *Nein.*

### **4. Sind Sie Frau Schmidt?**

A *Ja, Maria.*

B *Ja, das bin ich.*

C *Nein.*

## **8 –mashq. Quyidagi so`zlar bilan avvalo so`roq gaplar tuzing, keyin ularga javob bering.**

*Namuna:* (*Wie heißen Sie? - Mein Name ist Jusupow*)

heißen – wie –Sie:

ist - Name -Jusupow -mein

a) ist –wer –Frau – Sabirowa:

ich –das –bin:

b) Herr Schläuter-Sie – sind:

Ich –nein –heiße –Stein:

c) du –heißt – wie:

heiße –Ingrid –ich:

d) Ihnen –es –wie –geht:

geht –es:

e) geht –wie – dir –es:

gut – danke:

dir - und:

auch –danke gut:

#### **9-mashq. Nemis tiliga tarjima qiling.**

1.U kim?

U student.

2.Uning ismi nima?

Uning ismi Ahmad.

3.U qayerda yashaydi?

Shaharda. Navoiy ko`chasi -14.

4. Uning ahvoli (sog`ligi) qanday?

U sog`lom. Sportsmen.

#### **10-mashq. Quyidagi testlarni ishlang. Bilimingizni sinab ko`ring.**

**a) Heißt er Matter?**

A. Nein, Matter.

B. Ja, er heißt Matter.

C. Ja, er heißt Baumer.

**b) Wo wohnen Sie?**

A. Sie wohnt in Leipzig.

B. Ich wohne in Leipzig.

C. Sie wohnen in Leipzig.

**e) Wo wohnt sie?**

A. Sie ist Hausfrau.

B. Ich wohne in Stuttgart.

C. Sie wohnt in Dortmund

**f) Wer sind Sie?**

A. Mein Name ist Matter.

B. Ich bin aus der Schweiz.

C. Ich bin Landwirt.

**c) Wie heißen sie?**

- A. Sie heißt Katja Heinemann.
- B. Ja, wir heißen Katja und Klaus.
- C. Sie heißen Katja und Klaus

**g) Ist das Frau Sauer?**

- A. Ja, das ist er.
- B. Ja, das sind sie.
- S. Ja, das ist sie.

**d) Wie heißen Sie?**

- A. Ich heiße Röder.
- B. Sie heißen Röder.
- C. Sie heißt Röder.

**11-mashq. Sein fe'li bilan qo`llanilgan quyidagi gaplarni nutqingizda qo'llashga o'rganing, tilingizga singdiring.**

- 1.Sie ist zur Heirat noch jung, erst 16 Jahre alt.
- 2 Der Vorsitzende war sehr entgegenkommend.
- 3.Wir sind Freunde und das ist schön.
- 4.Nun, wie ist es heute abend mit der Zeit?
- 5.Wo bist du so lange gewesen?
- 6.Sind Sie nicht Frau Müller?

**12-mashq . Quyidagi dialogni nemis tiliga tarjima qiling.**

- A.: -Otangning kasbi nima?
- B.: -Otam o`qituvchi. Maktabda ishlaydi.
- A.: - Nimadan dars beradi?
- B.: -Fizikadan.Lekin o`zi matematik.

**13-mashq. Nima deb o`ylaysiz “sein” fe'lining antonimi bormi?**

*Aniq javob berish uchun Gamletning quyidagi so`zlarini o`zbekchaga tarjima qilib ko`ring. "Sein oder nicht sein."*

## GRAMMATIKA

### OT (DAS SUBSTANTIV)

Narsa va hodisa nomlarini bildirib, wer? kim?, was? nima? so`roqlariga javob beradigan so`z turkumi ot deyiladi.

Masalan:

das Buch, der Tisch  
die Liebe, die Jugend

Otlar olamda mavjud bo'lgan barcha narsalarni nomlaydi. Masalan:

das Wasser	— suv	das Brot	— non
die Luft	— havo	das Getränk	— ichimlik
der Grund	— tuproq	das Haus	— uy
das Feuer	— olov	das Kind	— bola

Otlar ma’no xususiyatlariga ko`ra atoqli otlar (die Eigennamen) - Chiwa, Leipzig, Werner, Sabir va turdosh otlar (die (Gattungsnamen) die Stadt, der Berg, das Haus kabilarga bo`linadi. Atoqli otlar maxsus qo'yilgan nomlardir.

Nemis tilida otlarda egalik kategoriyasi yo`q. Narsaning birovga qarashli ekanligi egalik olmoshlari yordamida anglashiniladi. Masalan: kitobim—mein Buch; vatanimiz - unsere Heimat.

# OTLARNING ROD KATEGORIYASI

## **(Das grammatische Geschlecht)**

Nemis tilida otlar biologik va grammatik jihatidan farqlanib, uch xil rodga bo'linadi. Ular oldida der, die, das artikllari qo'lllaniladi va mujskoy rod — der (*das Maskulinum*) yozuvda qisqa belgilanishi (m) yoki (r), jenskiy rod — die (*das Femininum*) yozuvda qisqa belgilanishi (f) yoki (e), sredniy rod — das (*das Neutrumb*) yozuvda qisqa belgilanishi (n) yoki (s) ko'inishlarida bir-birlaridan farqlanadi.

Nemis tilida otlarni rodлага ajratish asosan ikki turga bo'lib o'rGANILADI.

**1.Biologik rod (jins) bildiruvchi artikllar.** Bunda otlarning rodi asosan ularning tabiiy jinsiga qarab belgilanadi. *der Mann - die Frau – das Kind  
der Ochs –die Kuh – das Kalb*

*der Hahn – die Henne – das Küken.*

**2.Grammatik rod bildiruvchi artikelar.** Ular obyektiv borliqdagi (tabiiy jinsga aloqasi bo'limgan) barcha narsa va hodisalarning nomlari oldida (ramziy) qo'llaniladi, muayyan qoida yo'q. Bu esa nemis tilini o'rganuvchi xorijliklarga, ayniqsa biz o'zbeklarga ancha mushkulliklar tug'diradi. Masalan

oshxona anjomlaridan qoshiq mujskoy rod (*der Löffel*), sanchqi jenskiy rod (*die Gabel*) va pichoq (*das Messer*) nomlanilib rod jihatidan keskin farqlanadi. Bunung sababini tilshunoslar hozirgacha ayta olmayaptilar. Analog misol sifatida der Tisch (*stol*), das Fenster (*oyna*), die Tür (*eshik*), yoki der Federhalter (*ruchka*), die Tinte (*siyoh*), das Heft (*daftar*) keltirish mumkin. Biroq bu degani nemis tilida grammatik rod anglatuvchi belgilar yo'q degani emas. Ayrim affikslar grammatik rod bildiruvchi qo'shimchalar hisoblanadi. Yoxud -er,-ler, -ling, - ner suffikslari mujskoy rodni, -in,- ung, -heit,-keit, -schaft, -ei, - tion, - tät suffikslari jenskiy rodni, -chen, -lein, -um, -ge prefiksi va -e suffiksi ishtirokida yasalgan otlar sredniy rodni bildiradilar. Shunga muvofiq nemis tili ixlosmandlari ot turkumiga xos so'zlarni o'rghanayotganda, ularning artikliga alohida e'tibor berishlari zarur. Zero, ot yoki otlashgan so'z oldida qo'llanilayotgan artikl nafaqat ularning rodi, balki ularning aniq va noaniqligi hamda soni (birlik va ko'pligi) va kelishigini bildirib keladi. Masalan: o'zbekcha "kitob" so'zi nemischada faqatgina "Buch" deb tarjima qilinsa xatoga yo'l qo'yilgan bo'ladi, uni albatta artikli bilan "das Buch" deb qo'llash lozim. Zero bu bilan das artikli ushbu so'zning sredniy rodga xosligi, aniq predmetligi, birlik shaklidaligi va nominativ (akkuzativ) kelishigida turganligini ko'rsatadi. Mazkur so'zning ko'pligi esa die Bücher shaklida yasaladi. Shu bois otlar o'rghanilayotganda ularning uch asosiy shakli: jumladan 1. Nominativ Singular: der Tisch, die Tafel, das Buch,

2. Genitiv Singular: des Tisches, der Tafel, des Buches

3. Nominativ Plural: die Tische, die Tafeln, die Bücher ko'rinishlari o'rghanuvchilar etiborida bo'lishlari kerak. Bular lug'atlarda muayyan belgilar bilan, yoxud Tisch, m, -es,-e; Tafel,f, -, -n; Buch, n, -es, -"-er qayd qilinadi.

Nemis tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning qo'shma otlarga boyligidir. Qo'shma otlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan

hosil bo`ladi va ularning muayyan bir rodga aloqadorligi esa so`z oxirida kelayotgan ot rodiga qarab belgilanadi. Masalan:

die Arbeit +der Tag=der Arbeitstag.

das Land + die Karte= die Landkarte

der Kredit + das Buch+ die Nummer =die Kreditbuchnummer

die Schule + der Direktor +die Stelle + der Vertreter +das Kabinett  
=das Schuldirektorsstellvertreterskabinett

### **Nemis tilida kelishiklar**

Nemis tilida to`rtta kelishik bor.Otlarning turlanishi quyidagi kelishiklar orqali ifodalanadi.

1. der Nominativ (*Bosh kelishik*)
2. der Genitiv (*Qaratqich kelishigi*)
3. der Dativ (*Jo`nalish kelishigi*).
4. der Akkusativ (*Tushum kelishigi*)

Bosh kelishik shaxs, narsa va hodisa nomlarini ifoda etib, wer? (*kim?*), was? (*nima?*) so`roqlariga javob beradi.

Qaratqich kelishigi asosan mansublik (qarashlilik) ma’nosini bildirib, wessen? (*kimning?, nimaning?*) so`rog`iga javob beradi.

Jo`nalish kelishigi esa harakatning narsaga (hodisaga) bo`lgan yo`nalish munosabatini ifodalaydi va wem? (*kimga?, nimaga?*), ko’makchilar yordamisiz wo? (*qayerda?*), wann? (*qachon?*) so`roqlariga ko’makchilar yordamida javob beradi.

Tushum kelishigi shaxs yoki narsaga nisbatan harakat yo`nalishini ifoda etib, wen? (*kimni?*), was? (*nimani?*) so`roqlariga ko’makchisiz wohin? (*qayerga?*) so`rog`iga ko’makchilar yordamida javob beradi.

## **ARTIKLLARNING TURLARI VA ULARNING KELISHIKLARDA TURLANISHI**

Yuqorida qayd qilinganidek, artikllar otlarning rodini, sonini, kelishigini ko`rsatadi va gap aniq yoki noaniq predmet haqida ketayotganini bildiradi. Shu ma'noda ular ikki xil bo`ladi: 1.aniq artikllar der, die, das; ko`plikda die;

2. noaniq artikllar ein, eine, ein.

Noaniq artikllarning ko`pligi yo`q.

### **Aniq artikllarning turlanishi**

<b>Kasus</b>	<b>Singular</b>			<b>Plural</b>
	<b>Maskulinum</b>	<b>Femininum</b>	<b>Neutrum</b>	
Nominativ	der	die	das	die
Genitiv	des	der	des	der
Dativ	dem	der	dem	den
Akkusativ	den	die	das	die

### **Noaniq artikllarning turlanishi**

<b>Kasus</b>	<b>Singular</b>			<b>Plural</b>
	<b>Maskulinum</b>	<b>Femininum</b>	<b>Neutrum</b>	
Nominativ	ein	eine	ein	-
Genitiv	eines	einer	eines	-
Dativ	einem	einer	einem	-
Akkusativ	einen	eine	ein	-

Artikllar o'zlari anglatib kelayatgan grammatik (rod,son, kelishik,aniqlik-noaniqlik) ma'nolari bilan bir qatorda leksik ma'nolarga:

Kasus	Singular	Plural
Nominativ	-	-
Genitiv	-ning	-larning
Dativ	-ga	-larga
Akkusativ	-ni	-larni

Artikl aniqlik va noaniqlik ma'nolarini ifodalaydi. Gap borayotgan narsa yoki hodisa muloqot qatnashchilariga tanish bo`lsa aniq artikl, y muloqotda birinchi bora qo'llanilayotgan yoki notanish bo`lsa noaniq artikl qo'llaniladi, masalan:

Der Dozent ruft *einen Jungen* an die Tafel.

Der Junge geht an die Tafel gern.

Arap ot oldidan egalik, ko`rsatish va so`roq olmoshlaridan biri yoki son va «kein» inkor olmoshi kelsa, artikl ishlatilmaydi. Masalan:

*Mein Bruder* ist Fernstudent.

In *jedem* Stock gibt es ein Sprachlabor.

Ich habe *drei* Söhne.

Er hat *kein* Heft mit.

## **KISHILIK OLMOShLARI**

Kishilik olmoshlari nutq jarayonida tilga olingan shaxs yoki narsalar o`rnida qo'llanuvchi olmoshlaridir. Bunda birinchi va ikkinchi shaxslarda gapi-ruvchi va murojat qilinuvchi kishilar, uchinchi shaxsda esa muhokama qilinuvchi shaxs yoki predmetlar nomlanadi.

Nemis tilida quyidagi kishilik olmoshlari bor: ich - men, du - sen, er- u (mujskoy rod), sie - u (jenskiy rod), es - u (sredniy rod), wir - biz, ihr - siz, sie - ular, Sie - Siz (hurmat shakli).

Kishilik olmoshlari birlik (ich,du,er,sie,es) va ko`plik shakliga (wir,ihr,sie) ega va ular uch shaxsga (ich – wir = gapiruvchilar), (du - ihr = murojaat qilinuvchilar) va (er,sie,es – sie = muhokama qilinuvchilar) ga bo’linadi. Hamda 2-shaxs birlik va 2-shaxs ko`plikga nisbatan qo`llanadigan hurmat shakli (Sie) ga ega. Sxemaga qarang:

Birlik	Ko`plik
ich	wir
du	ihr
er,sie,es	sie
	Sie

Kishilik olmoshlari kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

### Birlik

N.	ich	du	er	sie	es
G.	meiner	deiner	seiner	ihrer	seiner
D.	mir	dir	ihm	ihr	ihm
Akk	mich	dich	ihn	sie	es

### Ko`plik

N.	wir	ihr	sie	Sie
G.	unser	euer	ihrer	Ihrer
D.	uns	euch	ihnen	Ihnen
Akk.	uns	euch	sie	Sie

Kishilik olmoshlarining Genitiv shakli ma’nolari egalik olmoshlari bilan mushtarakligi bois nutqda kam uchraydi.

## **HABEN, SEIN BA WERDEN YORDAMCHI FE’LLARINI „PRÄSENS“- DA TUSLANISHI.**

Haben, sein, werden fe’llari nemis tilini o`rganishning birinchi bosqichida muhim rol o`ynaydi. Chunki barcha sodda gaplar va kundalik hayot jarayonida qo`llaniluvchi ko`pchilik zaruriy fikrlar shu fe’llar yordamida ifodalanaadi. Undan tashqari fe’l zamонлари va nisbatлари yasalishida bu fe’llarning ahamiyati kattadir. Ular asosiy fe’l sifatida qo`llanilsa to`liq ma’noda, yordam-

chi vazifasida kelganda alohida tarjima qilinmaydi, ular o`zi birga qo`llanilayotgan fe'lning zamoni, nisbati va maylini yashashda ko'maklashishadi va gap tarjimasi asosiy fe'l ma'nosи asosida kechadi. Quyida har bir fe'lga alohida to`xtalamiz.

1. «**Haben**» fe'li o`zbek tilida «biror narsaga ega bo`lmoq», «biror narsasi bor bo`lmoq» kabi ma'nolarni anglatadi. Gapda tushum kelishigini boshqaradi.

Bu fe'lni o`rganish va uning ishtirokida gap tuzishda talabalar ancha qiynaladilar. Chunki uning o`zbek tilidagi ma'no ekvivalentlari «ega bo`lmoq»—nimaga? jo`nalish kelishigini, «bor bo`lmoq» esa, kimda? nimada? so`rog iga javob bo`lib, o`rin-payt kelishigini boshqaradi.

Masalan: «Menda kitob bor», yoki «U katta obro`ga ega» gaplarini nemis tiliga tarjima qilishda talabalar haben fe'li faqat tushum kelishigini boshqarib keli shini unutib, uni o`rin-payt yoki jo`nalish kelishigida qo`llashga harakat qiladilar va qo`pol xatoga yo`l qo`yadilar. Zero, bu gaplar «Ich habe ein Buch» va «Er hat ein großes Ansehen» deb tarjima qilinishi kerak.

«**Haben**» fe'li noto`g`ri tuslanuvchi fe'ldir. U Präsens da quyidagicha tuslanadi:

( <b>Singular</b> )	( <b>Plural</b> )
ich habe	wir haben
du hast	ihr habt
er	sie haben
sie }hat	
es	Sie haben

“**Haben**” fe'li tushum kelishigini boshqaradi va asosan noaniq artikl bilan qo`llaniladi. Masalan: *Ich habe einen Bruder.*

*Du hast eine Schwester.*

*Sie hat ein Kind.*

2. «**Sein**» fe’li o`zbek tilida «bo`lmoq» fe’lining asosiy va qo`shimcha ma’nolariga mos keladi.Biroq bu fe’lni nutqda qo’llanilishida ham o’zbek o’quvchilari muayyan (*Karim ishchi = Karim Arbeiter; U tiringhoq = Er fleißig*) xatolarga yo’l qo’yishadi.

Ma’lumki, “bo`lmoq” fe’li o`zbek tilida hozirgi zamonda deyarli qo’llanilmaydi. Nemis tilida esa «sein» fe’li hozirgi zamonda albatta qo’llanilishi lozim. Buni unutgan talabalar nemischa gap tuzishda **sein** fe’lini qo`llamay yuqorida berilgan misollarga o’xshab grammatik xatolarga yo’l qo`yadilar.

«**Sein**» fe’li gapda ot kesimning bir qismi bo`lib keladi va o`zbek tiliga tarjima qilinmaydi. U ot kesimning qo`shimchalariga to`g`ri keladi. Masalan: Men talaba(man). Akam sportchi(dir).

Ich bin Student. Mein Bruder ist Sportler.

Xona yorug`. Men xursandman.

Das Zimmer ist hell. Ich bin froh.

«Sein» fe’li hozirgi zamonda quyidagicha tuslanadi:

( <b>Singular</b> )	( <b>Plural</b> )
ich bin	wir sind
du bist	ihr seid
er	sie sind
sie }ist	
es	Sie sind

3. «**Werden**» yordamchi fe’li o`zbek tilida «bo`lmoq» (kelasi zamon ma’nosida) «biror darajaga erishmoq» kabi ma’nolarni anglatadi. Masalan: Ich werde Lehrer. (*Men o`qituvchi bo`laman.*) Die Stadt wird größer und schöner. (*Shahar yanada kattaroq va go`zalroq bo`ladi.*)

Bu fe’l ham yordamchi va noto`g`ri tuslanuvchi fe’ldir, u hozirgi zamonda quyidagicha tuslanadi:

<b>Singular</b>	<b>Plural</b>
ich werde	wir werden
du wirst	ihr werdet
er	sie werden
sie }wird	
es	Sie werden

“Sein” va “werden” fe’llari o’zlarining o’zbek tilidagi bo’lmoq ma’nolari bilan sinonimlardek tuyulsada nutqda ma’no jihatidan farqlanadilar. Masalan: Ich bin jetzt krank, morgen werde ich gesund. (*Men hozir kasalman, ertaga sog’ayaman*). Ihr seid jetzt Abiturienten, morgen werdet ihr sicher Studenten. (*Sizlar hozir abiturientsizlar, kelasi yil albatta student bo’lasizlar.*)

### **Gaplarda so`z tartibi**

#### **DARAK GAPLARDA SO`Z TARTIBI**

Voqe va hodisalarini tasdiq yoki inkor yo`li bilan xabar qiluvchi gap darak gap a p deb aytildi.

Nemis tilida darak gaplarda ikki xil so`z tartibi bor:

- 1) to`g`ri so`z tartibli (die gerade Wortfolge)
- 2) teskari so`z tartibli (die ungerade (invertierte) Wortfolge)

**To`g`ri so`z tartibli** darak gaplarda birinchi o`rinda doimo ega, ikkinchi o`rinda kesim va ulardan keyin ikkinchi darajali gap bo`laklari qo`llanilishi zarur va bu nemis tilida mutloq qoida hisoblanadi, zero gapda so`z tartibining o’zgarishi uning ma’nosiga ta’sir qiladi yoki muayyan grammatik xatolarni yo’l qo’yilishiga olib keladi.

Ich lebe in Urgentsch. (*Men urganchda yashayman.*)

Mein Freund ist jetzt im Lesesaal. (*Mening do’stim hozir o’quv zalida.*)

To’g’ri so’z tartibining formulasi quyidagicha.

Agar gap ikkinchi darajali gap bo`lagi bilan boshlansa, **teskari so`z tartibli** gap hisoblanadi. Bu holda birinchi o`rinda ikkinchi darajali bo`lak, ikkinchi o`rinda kesim va so`ngra esa ega keladi. Bunga ham mutloq qoida deb qaraladi. Masalan:

In Chiwa lebt Lola. (*Lola xivada yashaydi*)

Zwei Kinder hat sie jetzt. (*Hozir uning ikki bolasi bor.*)

Teskari so`z tartibli gapning formulasi quyidagicha:

Ikkinci darajali gap bo`lagi + kesim+ega

Darak gaplardagi har ikkala so`z tartibida ham kesimning o`rni qat'iydir. U doimo ikkinchi o`rinda qo`llanilishi lozim.

1.Ega + kesim + ikkinchi darajali gap bo`laklari

2.Ikkinci darajali gap bo`lagi + kesim+ega + ikkinchi darajali gap bo`laklari

Wir arbeiten heute bis vier Uhr im Sprachlabor.

Heute arbeiten wir bis vier Uhr im Sprachlabor.

### **SO`ROQ GAPLARDA SO`Z TARTIBI**

Noma'lum voqelikka qiziqish va uni (aniq) bilib olish maqsadida qo`llaniladigan gaplarga so`roq gap deyiladi.

Nemis tilida so`roq gaplar ikki xil bo`ladi:

1. so`roq so`zli so`roq gap (Wortfrage);

2. so`roq so`zsiz so`roq gap (Satzfrage).

**So`roq so`zli so`roq gapda** birinchi o`rinda so`roq so`z, ikkinchi o`rinda kesim, so`ngra ega va ulardan keyin ikkinchi darajali bo`laklar turadi. Bu ham mutloq qoida. Masalan:

Wo lebst du? (*Sen qayerda yashaysan?*)

Was ist er? (*Uning kasbi nima?*)

Wie ist das Zimmer auf das Fest vorbereitet? (*Xona bayramga qanday tay-yorlanilgan?*)

So`roq so`zli so`roq gaplar quyidagi formula ko`rinishiga ega bo`ladi.

so`roq so`z +kesim + ega+ikkinchi darajali gap bo`lagi

**So`roq so`zsiz so`roq gap** doimo kesim bilan boshlanadi, so`ngra ega va keyin boshqa gap bo`laklari qo`llaniladi. Masalan:

Lebst du in Urgentsch? (*Sen urganchda yashaysanmi?*)

Wohnt er zur Zeit im Studentenheim? (*U hozir yotoqxonada yashay-dimi?*)

Quyidagi formula bo`yicha esa so`roq so`zsiz so`roq gaplar yasaladi.

kesim+ega + ikkinchi darajali gap bo`lagi

## GRAMMATIK MASHQLAR

### 1-mashq. Nuqtalar o`rniga tegishli artikl qo`ying.

1 ... Schwester. 2. ... Student. 3. ... Hochschule. 4. ... Studienjahr. 5. ... Land. 6. ... Studentenheim. 7. ... Freund. 8. ... Straße. 9. ... Kreide. 10. ... Buch. 11. ... Heft. 12. Familie. 13. ... Frau. 14. ... Mann. 15.... Kind 16.... Lehrer. 17. ... Eltern. 18. ... Bruder. 19. ... Schule. 20. .... Schülerin.

### 2-mashq. Nuqtalar o`rniga aniq va noaniq artikllarni qo`yib, gaplarni o`qing.

1. Ich habe ... Buch. ... Buch ist interessant. 2. Dort ist ... Student. Er steht an ... Tafel. ... Tafel ist sauber. 3. Der Student hat ... Kreide in der Hand. Er schreibt mit ... Kreide an. .. Tafel. Er schreibt ... Satz. ... Satz ist kurz. 4. Lola liest ... Text. Dann übersetzt sie ... Vokabeln. ... Vokabeln sind leicht.

### 3-mashq. Nemis tiliga tarjima qiling.

1. Bu o`quv xonasidir. 2. Maktab bu yerda. 3. O`quvchilar maktabga boryaptilar. 4. Mening ota-onam hali yosh. 5. Ularning bitta bolasi bor. Bu esa menman. 6. Senda ruchka bormi? 7. U kitob o`qiyapti. 8. Lola matnni qachon tarjima qiladi? 9. Burchakda shkaf turibdi. 10. Shkafda kitob va daftarlar bor.

### 4- mashq. Nuqtalar o`rniga mos artikllarni qo`ying, ularning kelishiklardi agi tarjima ma'nosiga e'tibor bering.

1. Er liest ... Text. 2. Wir übersetzen ... Wörter. 3. Der Dozent Karimow leitet ... Zirkel. 4. Der Titel ... Buches ist bekannt. 5. Ich gehe zu ... Arbeit. 6. Das Heft ... Studenten ist sauber. 7. Lola sitzt an ... Tisch. 8. Er gibt ... Kind ... Ball. 9. Wir machen ... Übung. 10. Ich liebe ... Sommer. 11. ... Löwe ist ... Tier.

**5-mashq. Quyidagi gaplarni Präsens da tuslang.**

1. Ich bin gesund. 2. Ich habe ein Auto.

**6- mashq. Nuqtalar o`rniga "sein" fe`lini tegishli shaxsda qo`ying.**

1. Die Straße ... breit. 2. Ich ... Sportler. 3. Du .. hungrig. 4. Er ... müde. 5. Wir... Studenten. 6. Ihr ... zufrieden. 7. Sie ... Kollegen. 8. Sie ... fleißig. 9.Alle .... gesund. 10. Man ... bescheiden.

**7- mashq. Nuqtalar o`rniga "haben" fe`lini tegishli shaxsda qo`ying.**

1. Ich ... ein Buch. 2. Du ... ein Heft 3. Er... einen Sohn. 4. Sie ... eine Vase. 5. Wir ... eine Prüfung. 6. Ihr ... Eltern. 7. Sie ... ihre Aufgaben. 8. Man ... Zeit. 9. Sie (Xurmat ma'nosida) ... nett!

**8- mashq. Nuqtalar o`rniga "haben" yoki "sein" fe'llaridan tegishlisini qo`ying.**

1. Das Kind ... einen Ball. 2. Der Ball ... schön. 3. Die Nacht ... kalt. 4. Der Baum .... schon grün. 5. Du ... eine Zeitung. 6. Die Zeitungen ... neu. 7. Wir ... keinen Unterricht. 8. Ihr ... morgen eine Vorlesung. 9. Sie ... lustig. 10. Sie ... frei. 11. Mein Vater ... Lehrer.

**9-mashq. Nemis tiliga tarjima qiling.**

1. Men o`n sakkiz yoshdaman. 2. Sening nemischa kitobing bormi?. 3. Uning akasi aspirant. 4. Vazifa oson. 5. Biz sog`lom va kuchlimiz. 6. Sizning kvartirangiz bor. 7. Ular sportchilar(dir). 8. Sizning yangi daftaringiz bormi? 9. Talabalar doimo darsga tayyor (emas) (*zum Unterricht (nicht) bereit sein*). 10. Matn qiyin, lekin qiziqarli. 11. Mening otam institutda o`qituvchi.

**10-mashq. Nuqtalar o`rniga "werden" fe`lini tegishli shaxs-sonda qo`ying.**

1. Der Winter kommt, die Tage ... kürzer, die Nächte länger. 2. Das Wetter ... kälter. 3. Diese jungen Leute ... Kosmonauten. 4. Ich ... Lehrer. 5.Mein

Freund ... Agronom. 6. Du ... Arzt. 7. Bald ... ihr Lehrer. 8. Es ... dunkel. 9. Im Frühling .... grün. 10. Im Sommer ... es warmer. 11. Hier ... eine Schule.

### **11- mashq. Nemis tiliga tarjima qiling.**

1. Men shifokor bo`lmoqchiman. 2. Sen sportchi bo`lasanmi? 3. U ashulachi bo`lmoqchi. 4. Biz hammamiz do`sht bo`lamiz. 5. Siz muhandis bo`lasizmi? 6. Ular agronom bo`lishmoqchi. 7. Bu yerda bolalar bog`chasi bo`ladi. 8. Qishloqlarimiz yana ham chiroyliroq bo`ladi. 9. Bugungi ma`ruza (die Vorlesung) albatta qiziqarli bo`ladi. 10. Bu musobaqada (*an diesem Wettkampf*) talabalarimiz g`olib (*Sieger*) bo`ladilar.

### **12-mashq. Ot o`rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo`ying.**

Muster: Die Studenten lesen den Text = *Sie lesen ihn.*

1. Wir sehen den Bus. 2. Er hilft dem Vater. 3. Er besucht seinen Freund sehr oft. 4. Sie gratuliert der Mutter. 3. Ich verstehe den Lehrer nicht. 6. Er schreibt einen Brief. 7. Sie übersetzt ein Gedicht. 8. Dieses Auto gehört dem Lehrer. 9. Der Dozent erklärt die Regel. 10. Er schenkt sie seiner Freundin.

### **13-mashq . Nuqtalar o`rniga gap ma`nosiga qarab tegishli kishilik olmoshlarini qo`ying.**

1. Ich und meine Freundin wohnen in einem Haus. Ich besuche ... oft. 2. Unsere Freunde sind hilfsbereit. Wir wenden uns oft an ... und sie helfen .... 3. Er besucht euch morgen. Seid ... zu Hause? 4. Du hast doch heute Geburtstag, ich gratuliere ... 5. Die Mutter kauft ein neues Kleid. Sie schenkt... mir. 6. Er liest eine Erzählung. ... ist interessant. 7. Er sagt ein Sprichwort. Ich verstehe ... aber nicht.

### **14-mashq. Nemis tiliga tarjima qiling.**

Men sizni ko`ryapman. 2. Men uni (qiz bolani) kuzataman. 3. Biz sizga yordamlashamiz. 4. Ular bizga xat yozadilar. 5. Film ularga yoqyapti. 6. U menga kitobni beradi. 7. Men unga javob yozaman. 8. Men uni (qiz bolani) o`quv zalida ko`p ko`raman. 9. U menga daftarini ko`rsatadi. 10. Bola kichkina. U bog`chaga boradi.

## Mustaqil ishslash uchun

### **1-mashq. Matnni o`qing va tarjima qiling.**

#### **Herr Schlüter und wir**

Unser Lehrer ist Herr Schlüter. Er kommt aus Halle. Er hat heute bei uns Unterricht. Sein Unterricht ist immer höchstinteressant und anschaulich. Herr Schlüter zeigt Bilder und erklärt die Vokabeln und Grammatik. Wir verstehen die neuen Wörter gut, aber Grammatik schlecht. Wir bilden Beispiele. Herr Schlüter fragt und wir antworten. Er diktiert und wir schreiben die Sätze. Er korrigiert die Fehler und wir wiederholen die Wörter. Wir hören ein Tonband und üben die Aussprache. Wir arbeiten fleißig. Das macht uns Spaß.

### **2 –mashq. Esingizga soling.**

#### **Der unbestimmte Artikel (Sg)**

m	n	f
ein	ein	eine

#### **Der bestimmte Artikel (Sg)**

m	n	f
der	das	die

#### **Der unbestimmte Artikel (Pl)**

---

#### **Der bestimmte Artikel (Pl)**

die die die

*Der unbestimmte Artikel hat keine Pluralform. Noaniq artikllarning ko'pligi yo'q.*

### **3-mashq. Aniq, noaniq artikllar va inkor olmoshining turlanishi.O`qing va o`rganib oling.**

m	n	f	Pl
<b>Nom:</b> der Mann	das Kind	die Frau	die Männer
ein	ein	eine	die Kinder
kein	kein	keine	keine Frauen

**Akk:** den Mann das Kind die Frau die Männer

<i>einen</i>	<i>ein</i>	<i>eine Frau</i>	<i>die Kinder</i>
<i>keinen</i>	<i>kein</i>	<i>keine</i>	<i>keine Frauen</i>
<b>Dat:</b> <i>dem Mann</i>	<i>dem Kind</i>	<i>der Frau</i>	<i>den Männern</i>
<i>einem</i>	<i>einem</i>	<i>einer</i>	<i>den Kindern</i>
<i>keinem</i>	<i>keinem</i>	<i>keiner</i>	<i>keinen Frauen</i>

